

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

ABDURAXMANOVA MADINA ULUGBEKOVNA

**KASALLIK NOMLARINING SEMANTIK VA PRAGMATIK TADQIQI
(o‘zbek, rus, ingliz tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

UO‘K 811.512.133’37:61
811.161.1’37:61
811.111’37:61

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Abduraxmanova Madina Ulugbekovna

Kasallik nomlarining semantik va pragmatik tadqiqi (o‘zbek, rus, ingliz tillari misolida)..... 3

Абдурахманова Мадина Улугбековна

Семантическое и прагматическое исследование названий болезней (на примере узбекского, русского, английского языков)..... 25

Abdurakhmaova Madina Ulugbekovna

Semantic and pragmatic study of the disease names (on the example of Uzbek, Russian, English languages)..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

ABDURAXMANOVA MADINA ULUGBEKOVNA

**KASALLIK NOMLARINING SEMANTIK VA PRAGMATIK TADQIQI
(o‘zbek, rus, ingliz tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.4.PhD/Fil2916 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instituti rasmiy saytida (www.adchti.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Shaxabitdinova Shoxida Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirzaxidova Miyasar Inamjanovna
filologiya fanlari doktori, professor

Xursanov Nurislom Iskandarovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “_____” _____soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Andijon shahar, Bobur shoh ko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374)223-88-14; faks: 0(374)223-88-30; e-mail: adchti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 170100 Andijon shahar, Boburshoh ko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374)223-88-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “_____” _____kuni tarqatildi.
(2023 yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor

A.Dj.Atboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha
falasafa doktori

M.E.Umarxo‘jayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tilshunosligida lugʻaviy birliklarning leksik-semantik, etimologik, semasiologik, onomasiologik va pragmalingvistik xususiyatlarini nazariy va amaliy tadqiq etish, terminologik lugʻatlar tuzish samarali davom etmoqda. Oʻtgan asrning 60-yillaridan boshlab lingvistik semantika, sistem tilshunoslik, sistem-struktur semantika, formallashtirish, antropolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi yangi yoʻnalishlar rivojlandi. Anʻanaviy tilshunoslik deb atalayotgan tilshunoslik yoʻnalishining metod va metodologiyasi hamda paradigmalari tilning muayyan xossalari tadqiq etish uchun oʻzlashtirilib qoldi. Shuning uchun yangi paradigma va yangi metod zaruriyati yuzaga keldi. Antropolingvistika tilni “til-olam-inson” modeli asosida antroposentrik nazariyaga suyangan holda tadqiq qila boshladi. Shu nazariya asosida avval tahlilga tortilgan tilning xossalari qayta tadqiq etila boshlandi. Ayniqsa, tilning terminologik korpusini qayta – antroposentrik yondashuv asosida tadqiqi diqqat markazida shaxs, uning diskurs, tekstda har tomonlama namoyon boʻlishi, tushunilishi tadqiqiga amaliy ehtiyojni yuzaga keltirmoqda.

Dunyo tilshunosligi diqqat markazida universal semantik universalisiya, oʻzaro bogʻliqlik, til va idrok oʻrtasida oʻzaro munosabat, fenomenlar, hodisalar kategorizatsiyasi, atrof muhit jarayonlari va ularning til tizimida mustahkamlanishining kognitiv-pragmatik tahlili turibdi. Kognitiv jarayonlar reprezentatsiyasining samarali instrumentlaridan biri ilmiy bilimning aniq soha tushunchasida aks etuvchi ilmiy terminlar, terminlar tizimi sanaladi. Denotativ maʼnoning rivojlanishi, leksik birliklar semantik maydonining kengayishiga boʻlgan ilmiy qiziqishning doimiy oʻsishi terminologik tizimlar rivojlanishi va shakllanishining koʻplab masalalarini oʻrganishga bagʻishlangan ishlarning paydo boʻlishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizda oʻtgan oʻn yilliklarda koʻplab tarjima va maxsus termin lugʻatlari ishlab chiqildi. Lekin oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan oʻzlashma terminlar va ularning semantik va pragmatik tadqiqi kam oʻrganganligicha qolmoqda. “...oʻzbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy maʼlumotlarni oʻzida jamlagan elektron koʻrinishdagi oʻzbek tili milliy korpusini yaratish choralari koʻrish davlat tiliga doir siyosatning ustuvor yoʻnalishidir.¹ Shuni taʼkidlash kerakki, terminlar boshqa leksik birliklar singari oʻzgaradi, maʼlum bir ilmiy bilimlar sohasining oʻzgaruvchan sharoiti, professional faoliyat sohasi, umuman olganda ijtimoiy madaniy borliqning aksi hisoblanadi. Alohida terminologik birliklar isteʼmoldan chiqadi, boshqalari qayta oʻylanadi, yana boshqalari umumisteʼmol leksemalariga aylanib, tibbiyot diskursidan chiqadi. Shuning uchun tibbiyot sohasiga aloqador boʻlgan atamalar, xususan, kasallik nomlarining semantik paradigmasi va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish turli xalqlarning madaniy qiyofasini namoyon etishga qaratilgan tadqiqotlar uchun zarurdir.

¹ Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзб Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 20.10.2020 йилдаги ПФ-6084-сон// <https://lex.uz/docs/5058351>

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 7 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-son, 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son: “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 20 oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son, 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-61-son Qarori va Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Eng avvalo, ta‘kidlash joizki, terminologiya muammosi tilshunoslikda yangi emas. Shunga qaramay, atamalarning semantik paradigmasi va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish yangi sohadir.

O‘zbek tilshunosligida tibbiy terminlar, asosan, an‘anaviy tilshunoslik doirasida tadqiq qilingan bo‘lib, bunga D.Bozorova, A.Xusanov, A.Qosimov, Z.Mirahmedovalarning nomzodlik dissertatsiyalarini² misol qilishimiz mumkin. Ularda tibbiyotning ma‘lum bir kichik terminologik tizimiga mansub birliklar tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinib, grammatik xususiyatlari tahlil qilingan hamda ularni tartibga solish bo‘yicha kerakli tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari, ularda tibbiy terminlarning etimologik jihatlariga ham e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, tibbiyot terminologiyasining tarixi va shakllanishi o‘zbek tilshunosligida A.Husanov, A.Qosimov, Z.Mirahmedova A.Madvaliyev, Y.To‘raqulov³lar tomonidan tahlil qilingan.

² Базарова Д.Х. Семантика наименований частей тела и производных от них в тюркских языках: автореф. дис. канд. филол. наук. – Т., 1967. – 27 с.; Хусанов А. Название болезней и их симптомов в узбекском языке: дис. канд. филол. наук. – Т., 1982.; Касымов А. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке: дис. канд. филол. наук. – Т., 1982; Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: филол. фан. номз. дис. – Т., 1994.

³ Хусанов А. Название болезней и их симптомов в узбекском языке: Дис... канд.фил.наук. – Ташкент, 1982; Қосимов А. Ўзбек тилида тиббий атамаларнинг хосил бўлиш усуллари: Фил. ф. д...дис. – Тошкент, 1984; Мирахмедова З. Ўзбек тили анатомик терминологияси: Филол. фан.ном...дис. – Тошкент, 1994; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т, 2017; Тўрақулов Ў. Тиббий энциклопедик луғат. – Т: "Энциклопедиялар бош нашриёти", 1994.

Shuningdek, tibbiyotga oid leksik birliklar zamonaviy tilshunoslik asosida ham endigina o'rganila boshlandi. Jumladan, N.Gaybullayeva, F.Abdulxairova, F.Qosimova, N.Rasulovalarning⁴ ishlari diqqatga sazovor.

Tilshunoslikda kasallik nomlarining tadqiqi bo'yicha amalga oshirilgan quyidagi olimlarning ishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin: O'zbek yosh tilshunosi G.L.Babayeva, rus tilshunoslari N.A.Allyonova, T.V.Pashkova, N.A.Budanova, T.A.Trafimenkova, I.V.Motchenko, Tojik tilshunosi M.X.Azizova, fransuz tilshunosi Denis Jamet⁵ va boshqalar. Ushbu ishlarning barchasida kasallik nomlari umumiy o'rganilgan bo'lib, ularda tibbiyotning aynan biror sohasiga oid atamalar tahlili amalga oshirilmagan. Ba'zi kasallik nomlari tanlab olinib, ular turli aspektlarda tahlilga tortilgan. Biz ham ushbu dissertatsiya ishimizda kasallik nomlariga umumiylik nuqtai nazaridan yondashdik va xalq tilida umumiste'molda bo'lgan ba'zi yorqin atamalarni tanlab oldik. Tanlab olingan atamalarni komponent tahlil o'tkazish orqali o'zbek, rus va ingliz tillarida ko'chma ma'noda qo'llanishini aniqladik. Fikrimizcha, ushbu xulosalarimizdan keyinchalik xususiy kasallik nomlari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotchilar ishlarida termin tizimi, terminlarning har xil tomonlari: terminlar polisemiyasi va sinonimiyasi, terminlar mohiyatini aniqlash va definitiviyasiga yondashuvlar, boshqa tillar termin tizimlari bilan o'zbek tili termin tizimini taqqoslash, umumiste'moldagi leksika terminologizatsiyasi muammolari va determinologizatsiyasi o'rganildi. Shu bilan birga kasallik nomlarining mohiyati, ilmiy bilim sohasi va O'zbekiston sotsiumida ularning vazifalari hamda ularning semantik, pragmatik xususiyatlari ilmiy adabiyotlarda kam tekshirilganligicha qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Chog'ishtirma tilshunoslik" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

⁴ Гайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемалар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 50 б.; Абдулхайрова Ф.И. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Т., 2021. – 132 б.; Қосимова Ф.Х. Ўзбек-инглиз тиббий терминлари ва уларнинг лингвокультурологик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Ф., 2022. – 167 б.; Расулова Н.А. Инглиз-ўзбек тилларидаги тиббиёт терминларининг ўқув луғатини тузиш тамойиллари (анатомик терминлар асосида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – А., 2022. – 54 б.

⁵ Бабаева Г.Л. Инглиз ва ўзбек тилларида касаллик номларини ифодаловчи отларнинг структурал-семантик ва лингвокультурологик жиҳатлари: Магистрлик. дисс. – Андижон, 2015; Алленова Н.А. Названия болезней в национальной научной и наивной картинах мира США: Этносемантические и когнитивные аспекты: Дисс... канд.фил.наук. – М., 2003. – 185 с.; Пашкова Т.В. Народные названия болезней в карельском языке: автореф. дис.канд.фил.наук. – Петрозаводск, 2008. – 18 с.; Буданова Н.А. Развитие медицинской терминологии в русском литературном языке XIX век (на материале названий болезней): автореф. дисс.канд.фил.наук. – Тверь, 2018. – 20 с.; Трафименкова Т.А. Терминология болезней как объект ономазиологического, семантико-парадигматического и лексикографического исследования: автореф.канд.фил.наук. – Орел, 2008. – 21 с.; Мотченко И.В. Основные тенденции и формирование английской медицинской терминологии: Автореф. дисс.канд.фил.наук. – М., 2001. – С.215; Азизова М.Х. Функционирование медицинских терминов в таджикском и английском языках (на материале названий болезней): автореф. дисс.канд.фил.наук. – Душанбе, 2016. – 26 с.; Denis Jamet. The Neological Functions of Disease Euphemisms in English and French: Verbal Hygiene or Speech Pathology? Lexis – Journal in English Lexicology. <https://journals.openedition.org/lexis/2397>

Tadqiqot maqsadi o‘zbek, rus, ingliz tillaridagi kasallik nomlarining semantik va pragmatik xususiyatlarini, ularning ko‘chma ma’noda qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- o‘zbek, rus, ingliz tillarida kasallik nomlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish;

- kasallik nomlari xususiyati, farq qiluvchi belgilari, terminologik tizim, terminlar definitsiyasi, mohiyatini tushunishga zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish;

- ilmiy bilim sohasining predmetlararo integratsiyasining o‘ziga xosligi va terminlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash xususiyatlarini o‘rganish.

Tadqiqotning obykti sifatida ilmiy lingvistik izlanishlarda, tibbiy ensiklopedik lug‘atlarda, badiiy asarlarda, xalq og‘zaki nutqida keltirilgan kasallik nomlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti kasallik nomlarining semantik tarkibi va pragmatik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada definitson va lingvokulturologik tahlil, shuningdek, etimologik, analitik tahlil, kasallik nomlarining tarkibiy-semantik xususiyatlarini tavsiflash va ko‘chma ma’nolarini aniqlash uchun komponent tahlil usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

atama qo‘llanish doirasi institutsional hududdan chiqqanda, pragmatik bo‘yoqdor sema hosil bo‘lib komponent tarkibning o‘zgarishiga olib kelishi asoslangan;

pragmatik tus institutsional diskurslarda ham bayonotning verballashgan aniq va verballashmagan yashirin maqsadlari; muloqot xususiyatlari; hamkorlik tamoyiliga bo‘ysunadigan nutqiy aktning o‘zaro ta’sir qoidalari; nutq akti ishtirokchilarining ijtimoiy va shaxsiy tavsifi, umumiy bilimi, xabar mazmuniga munosabati natijasida yuzaga chiqishi ochib berilgan;

o‘zbek, ingliz, rus tillarining evfemizatsiya hamda disfemizatsiya jarayonida o‘ziga xos jihatlari – rus tilida kasallikka oid institutsional nomlarning pragmatik, konnotativ tuslanishi, o‘zbek tilida umumiste’moldagi so‘zlarning xususiy diskurslarda ham faol ishlatilishi, ingliz tilida shaxs va voqealar, joy nomlari bilan bog‘liq iboralar ustuvorligi ochib berilgan;

bir xil kasallikni atovchi nomlar turli tillarda turlicha komponent tuzilishga ega bo‘la olishi o‘zbek, ingliz, rus tilidagi moxov, qiltomoq, ko‘rlik, g‘ilaylik, quturish, duduqlik, karlik, cho‘loqlik, pes kasallik nomlari misolida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kasallik nomlarining o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi semantik va pragmatik munosabatlari aniqlangan;

“Klinik anatomiya”, “Tibbiyotda xorijiy til”, “Lotin tili va tibbiy terminologiya” “Terminologiya”, “Tibbiy lingvistika”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik” “Pragmatik tilshunoslik”, “Kognitiv tilshunoslik” kabi fanlarni tashkil etish va o‘qitishda dissertatsiya materiallaridan samarali foydalanish mumkin;

“Kasallik nomlari lug‘ati” nomli mobil (android) ilova shaklidagi lug‘at tayyorlangan. Ushbu lug‘at https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.quar.med_dic saytiga joylashtirilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar va ma‘lumotlarning ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar qiyosiy-tipologik, differensial-semantik va pragmatik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, terminlarning kognitiv hamda pragmatik tahlilida, tibbiyot oliygohlaridagi fundamental fan hisoblangan lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishda, madaniyatlararo muloqotni shakllantirish, qiyosiy tipologiya va tarjimashunoslik bilan bog‘liq tadqiqotlarda ilmiy-nazariy qarashlarni to‘ldiradi va kengaytiradi. Dissertatsiya natijalari tibbiy lingvistikaning nazariy jihatdan taraqqiy topishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan yangi tipdagi o‘zbek, rus, ingliz tilida kasallik nomlari, tibbiy atamalar korpuslarini yaratish, mavjud lug‘atlardagi izoh va sharhlarni mukammallashtirishda hamda yangi tarjima lug‘atlarini tuzishda keng foydalanish mumkin. Bundan tashqari, qo‘lga kiritilgan natijalar terminologiya va tibbiyot oliygohlarida o‘zbek, rus, ingliz, lotin tili va tibbiy atamashunoslik fanlariga oid darslik, o‘quv qo‘llanmalarini yaratish uchun imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek, rus, ingliz tillarida kasallik nomlarining semantik va pragmatik tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tibbiy diskursdagi muloqot usullarining pragmatik jihatlari, tibbiy muloqot qatnashchilarining og‘zaki va yozma matn mazmunini tushunishi, pragmatik tus xususiy, institutsional diskurslarda ham bayonotning aniq va yashirin maqsadlari, nutq muomalasi xususiyatlari, hamkorlik tamoyiliga bo‘ysunadigan o‘zaro ta’sir qoidalari, so‘zlovchining munosabati va referensiyasi, so‘zlovchining umumiy bilimi, xarakteri xabar mazmuniga munosabati tarzida yuzaga chiqishi haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan OT-Φ1-18 raqamli “Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish” (2017-2022) mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023 yil 3 fevraldagi 39-01-313-son ma‘lumotnomasi). Natijada, evfemizatsiya hamda disfemizatsiya jarayonida tibbiy diskursning o‘ziga xos jihatlari – institutsional nomlarning pragmatik, konnotativ tuslanishi, o‘zbek tilida umumiste‘moldagi so‘zlarning faol ishlatilishi, shaxs va voqealar, joy nomlari bilan bog‘liq iboralar ustuvorligiga doir ilmiy xulosalar bilan boyishiga asos bo‘lgan;

kasallik nomlarining xalq og‘zaki nutqida ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, bu nomlarning odamlar hayotida katta ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida, tibbiyotda keng qo‘llanilgan nomlar, tibbiy atamalarning manba sohalari, tuzilishi, tematikasi va semantikasi haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy

va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Bolalar va biz” radioeshittirishining ssenariysini tayyorlashda 2022 yil sentabr-dekabr oylaridagi sonlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali DM tomonidan 2023 yil 9 yanvardagi O‘z/RV-23-02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, radieshittirishlar kasallik nomlarini evfemik, yoki disfemik qo‘llash natijalari, uning inson ruhiyatiga ta’siri, ifodalanayotgan fikrning tanlangan til birligi natijasida ijobiy, ba’zan salbiy talqin etilishi to‘g‘risidagi ilmiy mulohazalar bilan boyishiga asos bo‘lgan;

tibbiyot terminlari, xususan kasallik nomlarining o‘zbek, rus, ingliz tillarida rivojlanish tarixi, xalq og‘zaki nutqida qo‘llanadigan o‘zbek, rus, ingliz tillaridagi kasallik nomlari, ularning pragmatik xususiyatlari; kasallik nomlarining tuzilishi, tematikasi, manbalari va semantikasi haqidagi xulosalaridan Andijon davlat tibbiyot instituti “Xorijiy tillar kafedrası”da O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 30 iyundagi 359-sonli buyrig‘iga asosan (Ro‘yxatga olish raqami 359-538) tibbiyot institutlari magistrantlari uchun ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan “English in Medicine” (for master’s course) nomli darsligini yaratishda keng foydalanilgan (Andijon davlat tibbiyot institutining 2023 yil 30 yanvardagi 11/325-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya materiallarida keltirilgan kasallik nomlaridan matn, so‘z va so‘z birikmalarining o‘zbek va rus tillaridagi tarjimalarni topishda qo‘llanilgan, shuningdek, tibbiyot xodimi va bemor o‘rtasidagi muloqotda suhbatning o‘zaro ishonchli, har ikkala tomonga tushunarli bo‘lishi lozimligi, berilayotgan ma’lumotlar anglashga qulay, psixologik salbiy ta’sir o‘tkazmaydigan bo‘lishi haqidagi mulohazalar bilan boyishiga asos bo‘lgan;

tibbiy diskursda tibbiy terminlar vazifalarining xususiyatlarini aniqlash ularni paydo bo‘lish muhitida leksemaning pragmatik ma’nosini aniqlashga, denotativ ma’no shakllanish bosqichida leksik birliklarlar semantikasi xususiyatlarining qiyosiy tahlili va zamonaviy kasbiy tamg‘alangan kommunikatsiyani aniqlashga imkon berishi to‘g‘risidagi xulosalaridan Andijon davlat tibbiyot instituti “Xorijiy tillar kafedrası”da tibbiyot institutlari talabalari uchun ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Andijon davlat tibbiyot instituti rektorining 2022 yil 5 oktyabrdagi “598-sh”-sonli buyrug‘iga asosan) “Tibbiy metaforalar izohli lug‘ati”ni yaratish tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Andijon davlat tibbiyot institutining 2023 yil 30 yanvardagi 11/326-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, izohli lug‘at kasallik nomlari xalq ligvomadaniyatining e’tiborga molik qismi ekanligi, ularni o‘rganish tilshunoslikkina emas, tibbiyot uchun ham muhimligi, xususan, kasallik nomlarining evfemizatsiyasi psixolingvistik intensiyani amalga oshirishi: kasallik nomini aytmaslik, kasallikdan saqlashi haqidagi ilmiy mulohazalar bilan boyishiga asos bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish

uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan 6 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy xajmi 161 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Ishning I bobi "**Kasallik nomlarining tildagi o'rni**" deb nomlanib quyidagi qismlardan iborat: "**Leksema va atama (leksemaning atamaga aylanishi va atamaning leksemalik xususiyatlari)**", "**Pragmatika, maxsus diskurs birliklari pragmatikasi**", "**Turli tillarda kasallik nomlari tizimining shakllanishi**".

Tilshunoslikda nominativ birliklarni o'rganishda ko'p sonli tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, atama (termin) so'zining zamonaviy ilmiy tafakkurda yagona, umumqabul qilingan ta'rifi (definitsiya) mavjud emas. Tilshunoslar tomonidan atamaga har xil ta'riflar berilgan. Dissertatsiyada bunday qarashlar ko'plab ko'rib chiqilgan va saralangan:

X.B.Qodirova shunday deydi "Bugungi kunda "termin" yoki "atama" so'zlari orasida farq borligi to'g'risida ayrim tilshunoslarning fikrlari to'qnash kelayotganligi bu masalada yana ko'p izlanishlar qilinishi kerakligidan dalolat beradi. Tadqiqotlar bilan oydinlik kiritilguniga qadar biz O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL)da belgilab qo'yilgan faktga asoslanib, mazkur so'zlarni bitta leksik ma'noga ega turli tillardagi tushuncha bo'lib, bir sinonimik qatorda turadi deb hisoblaymiz"⁶. Ushbu fikrni biz ham qo'llab quvvatlaymiz va tadqiqot ishimizda termin hamda atama so'zlarini sinonim sifatida qo'llaymiz.

Tabiiy til inson muloqotidagi eng muhim omillardan biridir va biz tildan shunchaki muloqot qilish uchungina emas, balki, har xil muammolarni yechish, muhim hodisalarni yetkazish, tinglovchini qandaydir ishni qilishga undash va aksincha qaysidir ishni qilishdan to'xtatish, o'z hissiyotlarimizni bayon etish, birovlarining xatti-harakatlariga baho berish uchun ham foydalanamiz. Hattoki, inson taqdirini hal qilishda ham til katta ahamiyatga egadir. Bizning dissertatsiya ishimiz kasallik nomlarini tadqiq qilishga bag'ishlanganligini inobatga olib, tibbiy terminlar pragmatikasiga ahamiyat berishni joiz deb topdik.

Pragmatik ma'no terminning semantik tuzilishiga kirishi mumkin bo'lgan eng oxirgi komponent bo'lib ishlatiladi.

Tibbiy termin tizimi deganda kasbiy tibbiy sohada faol ishlatiluvchi tushuncha nomlari sifatida muomalaga kiruvchi terminlar majmui tushuniladi.

⁶ Қодирова Х.Б. Атама ва изоҳ (Миллий тасвирий ва амалий санъат атамаларининг ўзбекча-русча-инглизча изоҳлаш масаласи). Монография. Т.,2019 – Б. 81.

Tibbiy terminlar tizimida kasallik nomlari alohida o'rinni egallaydi. Chunki, tibbiyot ilmining asosiy vazifasi bu kasalliklarni davolash, inson umrini uzaytirish, ularni tushkunlikdan chiqarish, hayot tarzini yaxshilash va shu kabi oliyjanob ishlarni amalga oshirishdir.

Tibbiyot sohasi vakillari kasallik nomlari, tana a'zolari nomlari, dorivor vosita nomlari, davolash usullari nomlarining aksariyati yunon-lotin tilidan kirib kelganligini yaxshi biladi.

Bugungi kunda tibbiy termin tizimi eng rivojlangan va yaxshi ishlab chiqilgan tizimlardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot mavzusiga kelsak, unda kasallik nomlarining pragmatik xususiyatlari, xalq orasidagi nomlanishi va oddiy xalqning kasallik nomlariga munosabatini o'rganish diqqatni tortadi.

O'zbek tilining tibbiy termin tizimi bir marotaba shakllangan va o'zgarmas barqarorlikka ega emas, balki u "jonli" dinamik tarzda o'z mohiyatini o'zgartirib turuvchi, ya'ni ayrim terminologik birliklar o'z ma'nosini yo'qotib, qo'llanilmay qolsa, ba'zilar aksincha, tibbiyot xodimlarining kundalik hayotida sifat jihatdan yangi hodisalarni, voqealarni belgilab berayotganday bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotimiz asosida shunday xulosa qilish mumkin, tibbiy terminlar tizimi kasbiy hamjamiyatda kommunikativ o'zaro munosabatlar jarayonida qo'llaniladigan tibbiyot sohasidagi kasbiy faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari bilan bog'liq professional leksik birlik va sintaktik konstruksiyalar yig'indisi hisoblanadi. Terminlar tizimining asosiy tafovutlari uning yuqori darajada ishlab chiqilgani, aniqligi, terminologik birliklarning bir ma'noliligidir. Termin tizimi o'zining shakllanish jarayonida uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi, undan tashqari, qadimiy davrlardan buyon tekshirilayotgan terminlar tizimida yunon-lotin tilidagi o'zlashma so'zlar alohida ahamiyat kasb etadi. Yunon-rim terminlariga murojaat qilish asosida ekstralingvistik, tillarning ichki, ijtimoiy-psixologik omillar, tarixiy rivojlanish xususiyatlarining butun bir majmui yotadi.

Tibbiyot terminlari tibbiyot sohasida ilmiy tushunchalarni nomlashda samarali vosita hisoblanadi, biroq boshqa diskurslarda kam uchraydi, qo'shimcha assotsiativ ma'nolar kammahsuldor. Ayrim atamalar so'zlashuv uslubida ham keng qo'llansa-da, kasallikning xalqona nomlariga nisbatan pragmatik tusi xira, ammo mavjud, komponentlari sirasida pragmatik semalar bor.

Olib borilgan tahlil asosida qator xulosalarni qilish mumkin:

- 1) tibbiy terminlar asosan denotativ ma'noda qo'llanadi;
- 2) terminlar bir tomondan ma'lumotni yetkazishni yuqori darajada ta'minlaydi, ikkinchi tomondan esa kommunikator va suhbatdoshning aniq rol taqsimotini o'z zimmasiga oluvchi tibbiy diskursning kommunikatsiyaning o'ziga xos institutsional turi sifatidagi xususiyatini yoritib beradi, bunda kommunikatsiyaning bir a'zosiga yetakchi rol, suhbatdoshga esa passiv tinglovchi roli beriladi. Ta'kidlash joizki, "shifokor – bemor" tizimida muloqot uchun rollarning aniq taqsimlanishi xosdir, "shifokor – bemor" ning o'zaro ta'sirida kommunikatsiya xarakteri muloqotchilarning teng huquqligini oshirish tomoniga o'zgarishi mumkin. Yana rol taqsimoti hamkorlikni o'rnatishga intilishni

pasaytirmaydi, kommunikantlar xususiyatlarini, jumladan, produtsent-shifokorning ekspert pozitsiyasini yoritib beradi;

3) tahlil natijalari ta'kidlashicha, tibbiy diskurs uslubiy neytralligi, ekspressivlikning past darajasi bilan farq qiladi, shu bilan birga kommunikantlar intentsiyasiga bog'liqligida terminlar til o'yinlarini yaratish vositasiga aylanishi mumkin, kommunikatsiya ifodalanganligining oshishiga sabab bo'ladi;

4) ko'rinib turibdiki, tibbiy diskursda baholash, emotsionallik mavjud bo'lmaydi, shu bilan birga tibbiy terminlar xususiyatlari diqqatni tortib, ularning ko'p qismi semantik tuzilishida salbiy bahoga ega bo'ladi, u yoki bunday buzilishlar, salomatlik holatidan og'ishlarga signal bo'ladi.

Ishning II bobi **“O‘zbek, rus, ingliz tillarida kasallik nomlarining ko‘chma ma‘noda qo‘llanishi”** deb nomlanib quyidagi qismlardan iborat: **“Moxov atamasining semantik tahlili”, “Qiltomoq atamasining semantik tahlili”, “Ko‘rlik atamasining semantik tahlili”, “G‘ilaylik atamasining semantik tahlili”, “Quturish atamasining semantik tahlili”, “Duduqlik atamasining semantik tahlili”, “Karlik atamasining semantik tahlili”, “Cho‘loqlik atamasining semantik tahlili”, “Pes atamasining semantik tahlili”.**

Biz ushbu dissertatsiya ishimizda kasallik nomlariga umumiylik nuqtai nazaridan yondashdik va xalq tilida umumiste'molda bo'lgan ba'zi yorqin atamalarni tanlab oldik. Buning uchun avvalo shifokor, filologiya fanlari nomzodi A.Qosimovning *“Tibbiy terminlar izohli lug‘ati”*⁷ ning 1-jildini asos qilib oldik. Ushbu lug‘atda 5000 dan ortiq o‘zbekcha tibbiy atamalar keltirilgan bo‘lib, ular orasida 1000 dan ortig‘i kasallik va kasallik bilan bog‘liq atamalar ekanligini aniqladik. Ana shu atamalardan O‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilgan tilimizda eng faol qo‘llanuvchilarini tanlab oldik va tanlangan atamalarni komponent tahlil o‘tkazish orqali o‘zbek, rus va ingliz tillarida ko‘chma ma‘noda qo‘llanishini, ko‘chma ma‘noda ishlatilayotganda asl kasallik holatiga yaqinlik bor yoki yo‘qligini, qaysi sabablarga ko‘ra muayyan holatlarda aynan biror kasallik nomi qo‘llanishi chog‘ishtirma tahlil qildik. Ularning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

Tadqiqotimiz uchun faol ishlatiluvchi *so‘qirlik, ko‘zi ojizlik* ya‘ni *ko‘rlik* kasalligi nomini tanladik. Avvalo bu kasallik o‘zini qanday namoyon qilishini o‘zbek, rus, ingliz tibbiy lug‘atlaridagi, ilmiy adabiyotlardagi va onlayn jurnallardagi izohlar yordamida tahlil qilamiz.

Ko‘rlik, so‘qirlik, ko‘z ojizligi – ko‘z ko‘rish qobiliyatining butunlay yo‘qolishi, yorug‘likni qorong‘ulikdan ajrata olmasligi. Bunda ko‘rish quvvati “0” bo‘ladi. Ko‘rlikka ko‘pincha glaukoma, traxoma, blennoreya, ba‘zan muguz parda, ko‘ruv nervi va to‘r parda kasalliklari sabab bo‘ladi. Ko‘rlik kelib chiqishiga ko‘ra irsiy, tug‘ma va orttirilgan bo‘lishi mumkin...⁸.

Слепота – неспособность видеть, отсутствие зрения у человека. Полное отсутствие восприятия света характерно для полной слепоты, однако менее выраженное нарушение зрения также может быть классифицировано как слепота на основании ряда установленных законом

⁷ Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати. Жилд 1. – Т.: “Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти”, 2003. – 472 б.

⁸ Тўракулов Ё. ва б. Тиббиёт қомусий луғати. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. – 288 б. – Б. 112.

положений. Например, значительное сужение поля зрения характеризуется как слепота, даже если человек и видит четко окружающие его предметы...⁹

*Blindness – Inability to see. The leading causes of blindness in the U.S. are age-related macular degeneration, diabetic retinopathy, and glaucoma. The symptoms and signs of visual impairment include blurring of vision, difficulty reading, and inability to see in bright light or in darkness.*¹⁰

Ko‘rlik atamasi hammaga tanish atama bo‘lib, uchchala tildagi tibbiy izohlarda ham ko‘rish faoliyatining yo‘qolishi ta‘rifi keltirilgan. Biz tadqiqot ishimizda kasallik nomlarining ko‘chma ma‘nolarini aniqlashga harakat qilayotganligimiz bois so‘qirlik (ko‘r, ko‘rlik) atamasini ham ko‘chma ma‘noda ishlatilish holatlarini tadqiq qilmoqchimiz. Buning uchun avvalo atamaning semalarini aniqlab olamiz. Ko‘rlik atamasini quyidagi semalarga ajratdik: 1) ko‘zning ko‘rmasligi; 2) qorong‘ulik; 3) ojizlik; 4) yon-atrofdagi voqea-hodisalarni sezmaslik; 5) salbiy tus.

Ko‘rlik atamasining semalarini aniqlab olgach, gazetalarda, hikoyalarda va boshqa matnlardan ko‘chma ma‘nolarini aniqlab, tadqiq qilamiz.

1-misol. *Garchi bo‘lsada bunga ehtiyoji,
Zolimga yoqmasdi dinning rivoji.
Yorug‘likni ko‘rsa gar qalbi ko‘rlar,
Dilga shayton qurgan tuzoqu to‘rlar*¹¹.

Bu she‘rda “qalbi ko‘rlar” deb insofi yo‘q, iymonsiz odamlar nazarda tutilmoqda. Demak, biz aniqlagan semalar tartibida o‘zgarish kuzatilmoqda, salbiy tus ma‘nosi yorqinlashuvi sodir bo‘lmoqda.

2-misol. *“Ko‘rlar bozorida yo‘qdir so‘rovchi surmani
Dardi yo‘qlardin topilmas ko‘zlaridan tomchi yosh*¹².

Bu misrlardagi “Ko‘rlar bozori...” iborasida dardi yo‘q inson, birovning tashvishlarini o‘ylamagan inson nazarda tutilyapti, ya‘ni bee‘tiborlik, befarqlik ma‘nolari yuzaga chiqmoqda.

3-misol. *“Sodiqlikdan menga va‘zlar o‘qir edi,
Chinmi bilmam balki yolg‘on to‘qir edi,
Bilolmadim kimning ko‘zi “so‘qir” edi,
Yolg‘onlarni o‘ziga do‘st bilgan do‘stim.”*¹³

Bu she‘riy misradagi so‘qir so‘zi yordamida haqiqatni ko‘rmaydigan, yolg‘on gaplarni gapiruvchi inson nazarda tutilmoqda, 5-sema yorqinlashib qolgan semalar xiralashmoqda.

4-misol. *“So‘qir kecha. Nurafshon osmon.
Ko‘zda yonib yurakda bori
Tuproq yo‘ldan qaytmoqda dehqon,
Yuz-ko‘zida dala g‘ubori.”*¹⁴

⁹ https://nashislova.ru/med/page/slepota_Blindness.6543/

¹⁰ <https://www.tabers.com/tabersonline/view/Tabers-Dictionary/734042/all/blindness>

¹¹ <https://sahwii.wixsite.com/abduvaliqori/abduvali-origa-atalgan-sheerlar>

¹² Алихонтўра Соғуний. Бахтлиқ недур? Шеърлар тўплами. – Тошкент-Истамбул, 2021. – 246 б. – Б. 217.

¹³ Мирзо Элмурод. Дўстим. <https://www.facebook.com/groups/1871655329831233/posts/2753203611676396/>

¹⁴ Даврон Х. Тўмарис кўзлари// “Ёз” шеърлари – Т.: Ёш гвардия нашриёти, 1984.

Ushbu she'riy misrada "So 'qir kecha" qorong'u tun ma'nosini izohlamoqda, qorong'ulik ma'nosi yuzaga chiqib, qolgan semalar xiralashmoqda.

5-misol. "... Baland-baland so 'qir paxsa devorlar osha ko'cha tomonga shaftoli, olhirot, ba'zan aymoqi tog' uzumlar osilib tushgan..."¹⁵

Bu jumlada "so 'qir paxsa devorlar" deb eshik va derazasi yo'q devorlar nazarda tutilgan. Eshik, derazalari yo'q devor ortida hech narsa ko'rinmaydi, demak, ushbu gapda 1-sema yuzaga chiqib, qolganlari xiralashgan.

O'zbek tilidagi matnlar tahlilidan so'ng ko'rlik, so'qirlik atamaları o'zbek tilida ko'chma ma'noda ishlatiladi, shuningdek, so'qirlik atamasidagi har beshala sema muayyan holatlarda yorqinlasha oladi degan xulosaga keldik.

Keyingi bosqichda ko'rlik atamasining rus tilida qanday ma'nolarni ifodalay olishini tahlil qilmoqchimiz. Ko'rlik rus tilida *слепота (слепой)* deyiladi.

Слепота kasalligi ko'chma ma'noda ishlatilish holatlarini aniqlash, avvalo, unda mavjud semalarni aniqlashni talab etadi. Слепота atamasini quyidagi semalarga ajratdik: 1) ko'zning ko'rmasligi; 2) qorong'ulik; 3) ojizlik; 4) yon-atrofdagi voqea-hodisalarni sezmaslik; 5) salbiy tus.

Semalarni aniqlab olgach, *слепота (слепой)* atamasining gazetalar, hikoyalar va boshqa matnlarda berilgan shaklini tadqiq qilamiz.

1-misol. "А вот мне говорят – нэт больше нэдовольных, все, кто голосуют на выборах за – все довольны. А? – Сталин усмехнулся. – Политическая слепота! Враг притаился, голосует за, а он – нэдоволен!"¹⁶

Bu jumlada "Политическая слепота" iborasi bilan ko'rib turib ko'rmaslikka olish, haqiqatni tan olmaslik yahni salbiylik ma'nolari sezilmoqda, demak 5-sema yuzaga chiqmoqda.

2-misol. "...мать Сулико говорит о любви: когда один полюбит другого, летят стрелы огненные, и вонзаются в сердце, и уже нельзя выжить без другого человека, которого любишь. Это – чужие слова. Мать на самом деле думает иначе. Любовь – это слепота и тяга, и ничего больше"¹⁷.

Bu matnda "Любовь – это слепота" deb ojizlik ma'nosi yuzaga chiqmoqda, 3-sema yorqinlashmoqda, qolgan semalar esa xiralashmoqda.

3-misol. "На самом деле она и не думала покоряться слепой судьбе, и весь вечер они с племянницей Верой судили-рядили, как бы обвести её вокруг пальца: можно было и бежать из города куда глаза глядят, да только в чужих людях без средств к существованию не прожить..."¹⁸.

Bu matnda "слепой судьбе" taqdirga ko'r-ko'rona tan berish ya'ni 3-sema yorqinlashganligini, ojizlik ma'nosida qo'llanganini aniqladik.

4-misol. "Он любил на свете только себя, но даже не той кровной слепой любовью, какой любят свою же плоть, а сладострастно, похотливо, будто одна плоть возделела непрестанно другую, более прекрасную"¹⁹.

¹⁵ Фулом Ф. Мукаммал асарлар тўплами. Бешинчи том. Повестлар, пьесалар. – Т.: Фан, 1986. – 356 б. – Б. 57.

¹⁶ Александр Солженицын. В круге первом // Журнал новый мир. – Р., 1990. <https://processing.ruscorpora.ru/>

¹⁷ <https://processing.ruscorpora.ru/search>

¹⁸ [https://processing.ruscorpora.ru/search.xml?env=alpha&api=1.0&mycorp=&mysent=&mysize=&mysentsize=&dp p=&spp=&spd=&ct=&mydocsize=&mode=main&lang=ru&sort=i_grtagging&nodia=1&text=lexform&req](https://processing.ruscorpora.ru/search.xml?env=alpha&api=1.0&mycorp=&mysent=&mysize=&mysentsize=&dp p=&spp=&spd=&ct=&mydocsize=&mode=main&lang=ru&sort=i_grtagging&nodia=1&text=lexform&req=слепой)

¹⁹ https://processing.ruscorpora.ru/search.xml?env=alpha&api=1.0&mycorp=&mysent=&mysize=&mysentsize=&dp p=&spp=&spd=&ct=&mydocsize=&mode=main&lang=ru&sort=i_grtagging&nodia=1&text=lexform&req

Ushbu gapda “*кровной слепой любовью*” iborasida atama kuchli, shu bilan birga noto‘g‘ri muxabbat ma’nosida ishlatilmoqda, ya’ni salbiylik ma’nosi sezilmoqda. Salbiy tus semasi yorqinlashib, qolgan semalar xiralashmoqda.

5-misol. *Вскоре я с такими людьми перестала общаться. Почему? Да потому я не приемлю слепую любовь. Например, я здраво оцениваю своего сына, хоть и люблю до безобразия.*²⁰

Ushbu misolda “*я не приемлю слепую любовь*” iborasida muayyan shaxsning o‘z zurriyodiga nisbatan kuchli muxabbati natijasida, hech qanday kamchiliklarini ko‘rmaslik, uni hammadan ustun qo‘yish ma’nosini tushunish mumkin. Demak, bu gapda real voqelikni ko‘rmaslik ma’nosi kuchaymoqda.

6-misol. *Слепая ночь легла у ног, и не пускает на порог
Брожу по дому как во сне, но мне покоя нет нигде.*²¹

Ushbu qo‘shiqning matnidagi “*Слепая ночь*” iborasi orqali qorong‘ulik ma’nosi yuzaga chiqmoqda.

Rus tilidagi matnlar tahlilidan so‘ng *слепота*, *слепой* atamaları rus tilida ko‘chma ma’noda ishlatiladi, shuningdek, *слепота* atamasidagi har beshala sema muayyan holatlarda yorqinlasha oladi degan xulosaga keldik.

Keyingi bosqichda ko‘rlik atamasining ingliz tilida qanday ma’nolarni ifodalay olishini tahlil qilmoqchimiz. Ko‘rlik ma’nosida ingliz tilida *blindness* atamasi ishlatiladi.

Blindness atamasi ko‘chma ma’noda ishlatilish holatlarini aniqlash, avvalo, unda mavjud semalarni aniqlashni talab etadi. Blindness atamasini quyidagi semalarga ajratdik: 1) ko‘zning ko‘rmasligi; 2) qorong‘ulik; 3) ojizlik; 4) yon-atrofdagi voqea-hodisalarni sezmaslik; 5) salbiy tus.

Semalarni aniqlab olgach, blindness atamasining gazetalar, hikoyalar va boshqa matnlarda berilgan shaklini tadqiq qilamiz.

1-misol. “*Thus it shouts their spiritual blindness, and whispers darkly of their own rebelliousness...*”²².

Bu jumlada “*spiritual blindness*” (ma’naviy so‘qirlik) deb insonning ichki dunyosi, ruhiyati, ma’naviy qashshoqligiga urg‘u berilmoqda. So‘qirlik atamasidagi 5-sema birinchi o‘ringa chiqib qolmoqda.

2-misol. “*Carnelian produced null-sense hoods and proceeded to fit these over Grimmos head, and Moma Parsheenos. Dartingly as a lizards tongue he kissed MehoLindi on the side of the brow before plunging her too into silence and blindness.*”²³

Ushbu matnda “*plunging her too into silence and blindness*” (uni jimlik va so‘qirlikka cho‘ktirdi) deb qorong‘ulik nazarda tutilganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, bu jumlada qorong‘ulik semasi yuzaga chiqib, qolgan semalar xiralashmoqda.

²⁰ <https://lm.facebook.com/l.php?u=https%3A%2F%2Fnewsposter24.com%2Fu-menya-samye-krasivye>

²¹ Текст песни Ария - Слепая ночь легла у ног <https://teksti-pesenok.pro/1/Ariya/tekst-pesni-Slepaya-noch-legla-u-nog>

²² <https://www.english-corpora.org/bnc/Lo> and behold! The power of Old Testament storytelling. Dennis, Trevor. London: SPCK, 1991, pp. 24-108. 1987 s-units.

²³ Inquisitor. Watson, Ian. London: Boxtree, 1993, pp. 7-159. 3389 s-units.// <https://www.english-corpora.org/bnc/>

3-misol. “*Ellwood surfaced and sank, surfaced and sank. Below the water was silence and blindness; above was all frenzy and wild, all effort.*”²⁴

Ushbu misolda “*Below the water was silence and blindness*” (suv ostida jimlik va so‘qirlik) iborasidagi blindness atamasi orqali suvning ostidagi qorong‘ulik ma‘nosi ifodalanmoqda. Ushbu jumlada so‘qirlik atamasida biz aniqlagan 5 ta semadan 2-sema yorqinlashib, birinchi o‘ringa chiqib qolmoqda.

Ingliz tilidagi matnlar tahlilidan so‘ng blindness atamasi ko‘chma ma‘noda ishlatiladi, shuningdek, har beshala sema muayyan holatlarda yorqinlasha oladi degan xulosaga keldik.

Keyingi bosqichda quturish atamasining ko‘chma ma‘nolarini aniqlashni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Avvalo, quturish kasalligi tibbiy lug‘atlarda qanday izohlanganligini o‘rganamiz:

O‘zbek tilida: *Quturish – odam va hayvonlarda rabdoviruslar oilasiga mansub viruslar qo‘zg‘atadigan o‘tkir virusli kasallik. Odamga quturgan hayvon tishlaganda yoki uning so‘lagi tekkanda yuqadi. Markaziy nerv sistemasini ishdan chiqaradi. Tomir tortishishi, falajlik, hiqildoq va nafas yo‘li muskullarining spazmi bilan o‘tadi. Odamda kasallikning oldini olish uchun it (ayniqsa, quturgan it) qopsa darhol emlash shart.*²⁵

Rus tilida: *Бешенство (Rabies), Гидрофобия (Hydrophobia) – острое вирусное заболевание центральной нервной системы, которое может развиваться у всех теплокровных животных; передается человеку чаще всего через укус больной собаки. Симптомы заболевания появляются по окончании инкубационного периода, который может составлять от десяти дней до года, и включают: общее недомогание, повышение температуры, нарушение процесса дыхания, повышенное слюноотделение, приступы сильного возбуждения и болезненные спазмы мышц глотки, которые возникают в процессе глотания слюны.*²⁶

Ingliz tilida: *Rabies – an acute virus disease of the nervous system of mammals that is caused by a rhabdovirus (species Rabies virus of the genus Lyssavirus) usually transmitted through the bite of a rabid animal and that is characterized typically by increased salivation, abnormal behavior, and eventual paralysis and death when untreated.*²⁷

Kasallikning qanday belgilarni namoyon qilishini aniqlab olgach, quturish atamasining ko‘chma ma‘nolarini o‘rganishni maqsad qildik. O‘zbek tilida quturmoq atamasi xalq og‘zaki nutqida va badiiy adabiyotda ko‘chma ma‘noda keng qo‘llaniladi. Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasidagi o‘zbek tilining izohli lug‘atida *quturmoq* atamasiga quyidagicha ta‘rif berilgan:

Quturmoq: 1) quturish kasaliga yo‘liqmoq; 2) ko‘chma Jon-jahdi bilan, o‘zini tutolmagan darajada, yovuzlarcha harakat qilmoq; 3) ko‘chma Bosar-tusarni

²⁴ Conjure me. Curtis, Jack. London: Corgi Books, 1993, pp. 203-331. 3762 s-units.// <https://www.english-corpora.org/bnc/>

²⁵ Тўракулов Ё. ва б. Тиббиёт қомусий луғати. – Т.: Қомуслар бош тахририяти, 1994. – 288 б. – Б. 271.

²⁶ https://nashislova.ru/med/page/beshenstvo_Rabies_gidrofobiya_Hydrophobia.739/

²⁷ <https://www.merriam-webster.com/dictionary/rabies>

bilmay qolmoq, haddan oshmoq; 4) ko‘chma Zo‘r kuch, shiddatlanmoq bilan yuz bermoq, sodir bo‘lmoq; avjiga minmoq.²⁸

Ushbu izohlardan kelib chiqib quturish atamasini quyidagi semalarga ajratdik: 1) kasallik; 2) tishlash bilan bog‘liq; 3) hayvondan yuqadi; 4) vahshiylik, badjahllik; 5) me‘yoridan ortiqcha, juda ko‘p; 6) shiddatlanmoq, kuchaymoq; 7) noxush (yomon)lik.

Quturish atamasining semalarini aniqlab olgach o‘zbek tilidagi matnlarda, og‘zaki nutqda ko‘chma ma’nolarda ishlatilish holatini tadqiq qilamiz:

1-misol. *Qora bozorda AQSH dollari yana quturib ketdi.*²⁹

Ushbu matnda pul birligining quturishi deganda dollarning milliy valyutaga nisbatan ko‘tarilib ketganligiga ishora qilinmoqda. Bu gapda biz aniqlagan 7 ta semadan 5-sema yuzaga chiqib, qolgan semalar xiralashmoqda.

2-misol. *“Alberto” borgan sari quturib bormoqda. Dovuldan yana yetti kishi halok bo‘ldi.*³⁰

Ushbu matndagi “Alberto” borgan sari quturib bormoqda” deb dovulning kuchayganligi nazarda tutilganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Bu gapda biz aniqlagan 7 ta semadan 6-sema yuzaga chiqib qolgan semalar xiralashmoqda.

3-misol. *Urmang, urmang, o‘ldirib qo‘yasiz! – deya Bahrom Azizni darhol quchoqlab oldi. U cholning nevaralariga shashlik olib borib yedirib yurganini eshitganda, alamidan quturib ketgandi.*³¹

Ushbu misoldagi “alamidan quturib ketgandi” iborasi orqali qahramonning o‘zini boshqara olmay qolganligi, yoshi keksa insonga nisbatan juda qo‘pol munosabati ko‘rinib turibdi. Quturish atamasida vahshiylik semasi yorqinlashuvi kuzatilmoqda.

Quturish atamasini o‘zbek tilidagi matnlarda tahlil qilib, bu atama ko‘chma ma’noda biror voqelikdagi salbiy hodisalarni, his-tuyg‘ularni ifodalashda ishlatiladi degan xulosaga keldik.

